

YALPI ICHKI MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

Dastlabki ma`lumotlarga ko`ra, 2018 yilning yanvar – sentyabrda O`zbekiston Respublikasi YaIM hajmi joriy narxlarda 244 343,7 mlrd. so`mni tashkil etdi va o`tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 5,2 % ga o`sdi. YaIM deflyatori indeksi 2017 yilning yanvar – sentyabridagi narxlarga nisbatan 131,6 foizni tashkil etdi.

Yanvar-sentyabrda YaIM ning fizik hajmi va deflyatori indeksleri dinamikasi quyidagi ma`lumotlar bilan ifodalanadi (o`tgan yilning mos davriga nisbatan, % da).



Aholi jon boshiga hisoblangan YaIM 7 433 ming so`mni tashkil etdi va bu ko`rsatkich o`tgan yilning mos davriga nisbatan 3,5 % ga yuqoridir.

Aholi jon boshiga hisoblangan YaIM dinamikasi


	<i>Ming.so`m</i>	<i>O`sinh sur`ati, %</i>
2016 y. yanvar-sentyabr	4 514	105,0
2017 y. yanvar-sentyabr	5 460	103,2
2018 y. yanvar-sentyabr	7 433	103,5

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaIM ni ishlab chiqarish quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalanadi:

	<i>Mlrd.so`m</i>		<i>Fizik hajm indeksi, % da</i>	<i>YaIM o`shidagi hissasi, %</i>
	<i>yanvar- sentyabr 2017y.</i>	<i>yanvar- sentyabr 2018y.</i>		
YaIM – jami	176 463,5	244 343,7	105,2	5,2
<i>shu jumladan:</i>				
Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati	153 235,3	210 905,0	105,3	4,6
qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi	27 978,0	36 838,9	101,3	0,2
sanoat	40 806,4	63 994,3	106,3	1,4
qurilish	11 214,3	15 041,8	107,4	0,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar	15 845,7	19 606,8	104,1	0,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa	17 721,8	21 788,6	106,9	0,7
boshqa xizmat tarmoqlari	39 669,1	53 634,6	106,4	1,4
Mahsulotlarga sof solliqlar	23 228,2	33 438,7	104,5	0,6

Iqtisodiy o`shish sur`ati iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy dinamika bilan bog`liqdir. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo`shilgan qiymat (keyingi o`rinlarda YaQQ) hajmi YaIM umumiy hajmining 86,3 % ini tashkil etdi va 5,3 % ga o`sdi (YaIM mutloq o`shishiga ta`siri 4,6 foiz punktni tashkil etdi). Mahsulotlarga sof soliqlarning YaIM tarkibidagi ulushi 13,7 % ni tashkil etdi va 4,5 % darajasida o`shish qayd etildi (YaIM mutloq o`shishiga ta`siri 0,6 f.p.).

2018 yil yanvar - sentyabr oylarida YaIM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha o`shish sur`atlari



YaIM o`shish sur`atiga xizmatlar sohasi eng katta ta`sir ko`rsatdi (2,5 f.p.) va bu soha o`tgan yilning yanvar-sentyabriga nisbatan 6,0 % ga o`sdi. Shundan, savdo xizmatlari (avtotransport vositalarini ta`mirlashni qo`shgan holda) 3,9 % ga, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar 5,6 % ga, tashish va saqlash 3,9 % ga, axborot va aloqa 17,0 % ga va boshqa xizmatlar 6,4 % ga o`sdi.


Sanoat tarmog`ining qo`shilgan qiymatida 6,3 % lik o`shish qayd etildi. Sanoat ishlab chiqarishining YaIM mutloq o`shish sur`atiga ijobiy ta`siri 1,4 f.p. darajasida baholandi. Sanoat tarmog`idagi ijobiy dinamika tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog`i qo`shilgan qiymatining

28,5 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat tarmog`i qo`shilgan qiymatining 2,4 % ga va boshqa sanoat tarmoqlarining 2,0 % ga o`shishi hisobiga ta`minlandi.

Yanvar - sentyabr oylarida sanoat tarmog`ining yalpi qo`shilgan qiymati tarkibi

	Mlrd.so`m		Fizik hajm indeksi, % da
	2017 y.	2018 y.	
Sanoat	40 806,4	63 994,3	106,3
<i>shu jumladan:</i>			
tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	7 291,2	15 862,9	128,5
ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati	29 830,6	43 415,4	102,4
sanoatning boshqa tarmoqlari	3 684,6	4 716,0	102,0

Yanvar - sentyabr oylarida sanoat tarmog`ining yalpi qo`shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan % da)




- Tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat
- Sanoatning boshqa tarmoqlari

Qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 7,4 % ga o'sdi. YaIM ning mutloq o'sishida qurilish tarmog'ining ijobiy hissasi 0,5 f.p. darajasida baholandi.


2018 yilning yanvar – sentyabri yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 1,3 % darajasida ijobiy o'sish sur'ati qayd etildi. Mazkur tarmoqning YaIM mutloq o'sish sur'atiga ta'siri 0,2 f.p. ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar – sentyabr oylarida YaIM o'sishida tarmoqlarning hissasi



2018 yilning yanvar – sentyabrida YaIM deflyatori indeksi 2017 yilning mos davridagi narxlarga nisbatan 131,6 foizni tashkil etdi. YaIM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari mahsulotlarga sof soliqlarda – 137,7 % va sanoat tarmog'ida – 147,5 % qayd etildi. Respublikaning o'rtacha darajasidan past bo'lgan deflyator indeksleri qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 129,9 %, qurilishda – 124,9 %, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 118,9 %, tashish va saqlash, axborot va aloqada – 115,0 % va boshqa xizmatlarda – 127,1 % qayd etildi.

2018 yil yanvar - sentyabr oylarida YaIM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha deflyator indeksi




Iqtisodiy faoliyat turlari

O`tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda YaIM tarmoqlari bo`yicha tarkibida sanoatning ulushi 26,6 % dan 30,3 % ga o`sishi bilan bir paytda qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligining ulushi 18,3 % dan 17,5 % ga, qurilishning ulushi 7,3 % dan 7,1% ga kamaydi.


Xizmatlar sohasining YaIM tarmoqlari bo`yicha tarkibidagi ulushi 45,1 % ni tashkil etdi va o`tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 2,7 f.p. ga kamaydi.

Yanvar - sentyabr oylarida YaIM ning tarmoqlar bo`yicha tarkibi

2017 yil



2018 yil



- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati
- Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Xizmatlar